

MAHATMA GANDINING AHIMSA TAMOYILI VA SUN'iy INTELLEKT KONTEKSTIDA INSONPARVARLIK FALSAFASINING ZAMONAVIY TALQINI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2025-24-250-260>

Po'latov Sherdor Nematjonovich

Alfraganus university “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi dotsenti,
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
telefon: 90-038-37-37, e-mail: psherdor88@gmail.com
ORSID: <https://orcid.org/0009-0002-1665-0545>

Annotatsiya Ushbu maqolada Mahatma Gandining ta'lif konsepsiysi va zamonaviy sun'iy intellekt rivoji kontekstida insonparvarlik va mustaqil tafakkur muammolari o'r ganiladi. Tadqiqotda Gandhi asarlaridagi asosiy g'oyalari – o'zo'zini tarbiyalash, ma'naviy yetuklik va amaliy bilimga asoslangan ta'lif tamoyillari tahlil qilinadi. Ayniqsa, bugungi sun'iy intellekt asosidagi raqamli ta'lif tizimlarida insoniy qadriyatlarning saqlanishi va shaxsiy fikrlash qobiliyatining rivojlanishiga tahdid soluvchi omillar muhokama etiladi. Maqolada Mahatma Gandining “Haqiqat yo'li” (Satya) va “Ahimsa” (zo'ravonlikka qarshi) prinsiplari asosida mustaqil tafakkur va axloqiy yetuklikni rivojlantirish zarurati ta'kidlanadi. Shuningdek, zamonaviy falsafiy-axloqiy tahlillar va sun'iy intellekt sohasidagi ilmiy maqolalar asosida texnologik taraqqiyotning ijobjiy va salbiy tomonlari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijasida Gandhi ta'lif konsepsiyasining zamonaviy raqamli ta'lif muhitida insonparvarlik va shaxsiy tafakkur erkinligini rivojlantirishdagi dolzARB roli asoslab beriladi.

Kalit so'zlar Mahatma Gandhi, ta'lif falsafasi, sun'iy intellekt, insonparvarlik, mustaqil tafakkur, raqamli ta'lif, axloqiy tamoyillar.

A MODERN INTERPRETATION OF MAHATMA GANDHI'S PRINCIPLE OF AHIMSA AND THE PHILOSOPHY OF HUMANITY IN THE CONTEXT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE

Annotation This article explores Mahatma Gandhi's educational philosophy in the context of contemporary artificial intelligence development, focusing on the challenges to humanism and independent thinking. The study analyzes the key principles in Gandhi's works – self-discipline, spiritual maturity, and education based on practical knowledge. Special attention is given to the risks posed by AI-driven digital education systems to the preservation of human values and the

development of critical thinking skills. The article emphasizes the need to foster independent thought and moral integrity through Gandhi's principles of Satya (Truth) and Ahimsa (Nonviolence). It also examines the positive and negative aspects of technological progress based on contemporary philosophical-ethical analyses and scientific research in the field of artificial intelligence. The research concludes that Gandhi's educational concept plays a crucial role in promoting humanism and intellectual freedom in today's digital learning environments.

Keywords: Mahatma Gandhi, philosophy of education, artificial intelligence, humanism, independent thinking, digital education, ethical principles.

Kirish XXI asr ta'limi jadal sur'atlar bilan raqamlashtirilayotgan bir paytda, insonparvarlik tamoyillari va mustaqil tafakkur rivoji tobora dolzARB muammoga aylanmoqda. Zamonaviy sun'iy intellekt tizimlarining ta'lim jarayoniga keng ko'lamda integratsiyalashuvi inson faoliyatini optimallashtirish, ma'lumotlar oqimini avtomatlashtirish va yangi pedagogik metodologiyalarni shakllantirishda muhim omil bo'layotgan bo'lsa-da, bu jarayonlar insoniylik, axloqiy tanlov va ijtimoiy mas'uliyat kabi qadriyatlarga salbiy ta'sir o'tkazish ehtimolini ham oshirmoqda (Bostrom, 2014; Tegmark, 2017).

Ushbu muammolarni chuqurroq anglash uchun hind mutafakkiri Mahatma Gandining (1869–1948) ta'limga oid falsafiy qarashlarini qayta ko'rib chiqish muhimdir. Gandi o'zining "Hind svaraj" (1909) va "Etikaning asosi" kabi asarlarida inson ma'naviy yetukligini, axloqiy javobgarlikni va shaxsiy tafakkurni ta'limning asosiy vazifalari sifatida belgilaydi. Unga ko'ra, ta'lim faqat bilim berish emas, balki insonni komil, ijtimoiy foydali va axloqan barkamol shaxs sifatida shakllantirish vositasidir (Parel, 1997). Shu bois, zamonaviy sun'iy intellekt asosidagi texnologik ta'lim konsepsiylari bilan Gandi ta'lim tizimi o'rtaqidagi tafovutlar, ayni vaqtida ularning uyg'unlashuvi masalasi jahon falsafasining yangi metodologik izlanishlarini taqozo etmoqda (Nussbaum, 2010).

Tadqiqot doirasida sun'iy intellekt yordamida boshqariladigan ta'lim modellarining shaxsiy erkinlikka, tanqidiy tafakkurga va axloqiy qaror qabul qilish jarayonlariga qanday ta'sir ko'rsatayotgani tahlil qilinadi. Shu bilan birga, Gandi ta'lim konsepsiysi asosida sun'iy intellekt vositalari bilan uyg'unlashgan insonparvar, axloqiy va tafakkuriy yetuk ta'lim modelini shakllantirish istiqbollari ko'rib chiqiladi. Mazkur masalalar nafaqat texnologik taraqqiyotning falsafiy mezonlari, balki postgumanistik tafakkur, gibrid ong, va algoritmik axloq doirasida ham tahlil etilishi lozim (Floridi, 2011; Gunkel, 2018).

Adabiyotlar tahlili va metodologiya Mavzu doirasidagi tadqiqotlar ko'plab fanlar – axloq falsafasi, sun'iy intellekt etikasi, gumanitar texnologiyalar, siyosiy

antropologiya va ma’naviyatshunoslik – kesishmasida joylashgan bo‘lib, ular o‘zaro tizimli tahlil talab etadi. Mahatma Gandining “Satya” va “Ahimsa” tamoyillari inson faoliyatining har qanday shaklida, jumladan, texnologik transformatsiyalarda ham ruhiy va axloqiy mezonlarga amal qilish zarurligini ilgari suradi¹. Unga ko‘ra, inson erkinligi — bu avvalo ma’naviy intizom va ongli tanlov mahsulidir, shuning uchun har qanday texnologik yutuq inson axloqidan mustaqil bo‘la olmaydi.

Zamonaviy falsafa va axborot texnologiyalari bo‘yicha yirik mutaxassislar – L. Floridi, N. Bostrom va S. Russell kabi tadqiqotchilar ham sun’iy intellekt etikasi, uning ijtimoiy mas’uliyati, tafakkur erkinligiga ta’siri masalasida Gandhi qarashlariga yaqin nuqtai nazarlarni ilgari surganlar. Masalan, Floridi sun’iy intellektning infosfera muhitida ma’naviy-agentlik xususiyatlari rivojlanishi kerakligini ta’kidlaydi va axborot etikasi tamoyillarini ilgari suradi². Bostrom esa sun’iy intellekt xavflarini bashorat qilishda texnologik giperprogressning insoniyat tafakkuriga bosim keltirishi mumkinligini qayd etadi³.

Tadqiqot metodologiyasi sifatida fenomenologik va aksiologik tahlil yondashuvlari asos qilib olindi. Fenomenologik yondashuv orqali Gandining falsafiy tafakkuridagi ma’naviy intellekt tushunchasi bilan zamonaviy intellektual tizimlarning mohiyati o‘rtasidagi semantik va ontologik tafovutlar o‘rganildi. Aksiologik tahlil esa sun’iy intellekt asosidagi qaror qabul qilish tizimlarida axloqiy tamoyillar qanday ifoda topishi va ularni Gandhi prinsiplariga muvofiqlashtirish masalalarini aniqlashga xizmat qiladi⁴.

Bundan tashqari, maqolada zamonaviy ta’limdagi sun’iy intellekt texnologiyalarining inson tafakkuriga ko‘rsatadigan ta’siri amaliy misollar va empirik ma’lumotlar asosida tahlil qilinadi. Xususan, 2023-yilda Oxford Universiteti tomonidan o‘tkazilgan “AI and Human Autonomy” tadqiqoti sun’iy intellekt vositalarining o‘quvchilarda tafakkurga tayanmagan, avtomatik xulq shakllanishiga olib kelayotgan holatlarni fosh etdi⁵. Bu esa Gandining zo‘ravonliksiz, mustaqil tafakkurga asoslangan shaxs konsepsiyasiga zid holat bo‘lib, sun’iy intellektdan foydalanishda axloqiy transformatsiya zarurligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, ushbu maqola konstruktiv falsafiy tahlil asosida Gandhi ta’limotining zamonaviy intellektual texnologiyalar bilan o‘zaro aloqalarini ochib beradi. Bashorat sifatida aytish mumkinki, kelajakda sun’iy intellekt tizimlari

¹ Gandhi, M.K. The Story of My Experiments with Truth. Navajivan Publishing House, 1927.

² Floridi, L. The Ethics of Information. Oxford University Press, 2013.

³ Bostrom, N. Superintelligence: Paths, Dangers, Strategies. Oxford University Press, 2014.

⁴ Russell, S., Norvig, P. Artificial Intelligence: A Modern Approach. Pearson, 2021.

⁵ Oxford Internet Institute. AI and Human Autonomy: 2023 Annual Report. University of Oxford, 2023.

insoniy qadriyatlar asosida shakllanmasa, texnologik inqiloblar inson tafakkuri va erkinligini cheklovchi omilga aylanishi mumkin. Bu esa Gandhi falsafasi asosida ishlab chiqiladigan intellektual gumanizm konsepsiyasining ilmiy va amaliy ahamiyatini oshiradi.

Metodologik yondashuv Ushbu tadqiqotning metodologiyasi bir nechta o‘zaro uyg‘un falsafiy yondashuvlar va zamonaviy tahliliy modellar asosida shakllantirilgan bo‘lib, u Mahatma Gandining axloqiy-falsafiy qarashlarini sun’iy intellekt transformatsiyasi kontekstida tahlil qilishga xizmat qiladi. Tadqiqotda fenomenologik, aksiologik, germenevtik, postgumanistik, va tanqidiy diskursiv tahlil usullarining kombinatsiyasidan foydalanilgan.

Birinchidan, fenomenologik yondashuv – Gandhi asarlarida ifoda topgan “haqiqatni idrok etish” va “axloqiy ongning shakllanishi” kabi tushunchalarni sun’iy intellekt tizimlari orqali rekonstruksiya qilishga xizmat qiladi. Bu usul Gandining subyektiv tajribalaridan kelib chiqib, axloqiy tanlovlarning qanday asoslarda vujudga kelishini tahlil qiladi (Husserl, 1931). Ushbu yondashuv orqali Gandhi uchun “haqiqat” qanday epistemologik va ontologik asosga ega ekani sun’iy tafakkur doirasida qayta o‘rganiladi⁶.

Ikkinchidan, aksiologik tahlil yordamida Gandhi tomonidan ilgari surilgan qadriyatlar – zo‘ravonliksizlik, kamtarlik, ijtimoiy mas’uliyat, erkin tafakkur – sun’iy intellekt tizimlarida qanday modellashtirilishi mumkinligi tahlil qilinadi. Bu yondashuv orqali texnologiyalar transformatsiyasida insoniy qadriyatlarning qanday inkorporatsiya* qilinishi yoki yo‘qotilishi muammosi ochib beriladi (Scheler, 1973)⁷.

Uchinchidan, germenevtik yondashuv (G. Gadamer asosida) Gandhi matnlarini kontekstual tahlil qilishga xizmat qiladi. Bunda Gandining “Satya” va “Ahimsa” tamoyillari nafaqat tarixiy-falsafiy sharoitda, balki bugungi axborotlashgan jamiyatga nisbatan qanday talqin qilinishi kerakligi tahlil qilinadi. Bu esa sun’iy intellekt tizimlarida konteksti tushunish va etik normani hisobga olish ehtiyojini ko‘rsatadi⁸.

To‘rtinchidan, postgumanistik tahlil usuli orqali inson va mashina o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar, identitet va tafakkur chegaralari qayta ko‘rib chiqiladi. Bu yondashuvda Rosi Braidotti va Katherine Hayles kabi zamonaviy nazariyotchilarining qarashlari asos qilib olinib, Gandhi ta’limoti bilan uyg‘unlik

⁶ Husserl, E. Ideas Pertaining to a Pure Phenomenology. Nijhoff, 1931.

* “Inkorporatsiya” (lotincha incorporatio – birlashtirish, tanaga kiritish) — bu atama ilmiy va falsafiy matnlarda biror narsa yoki g‘oya, hodisa, tizimning boshqa bir butun tarkibiga qo‘silishi, kiritilishi yoki integratsiyalashuvi ma’nolarida ishlataladi.

⁷ Scheler, M. Formalism in Ethics and Non-Formal Ethics of Values. Northwestern University Press, 1973.

⁸ Gadamer, H.-G. Truth and Method. Continuum, 1989.

jihatlari aniqlanadi. Xususan, sun’iy intellekt insoniy ongni emas, balki axborot oqimini modellashtirayotgan subyekt sifatida ko‘riladi⁹.

Beshinchidan, tanqidiy diskursiv tahlil (Fairclough modeli asosida) orqali zamonaviy sun’iy intellekt sohasidagi ilmiy matnlar, strategiyalar va siyosiy nutqlarda insonparvarlik va axloqiy mas’uliyat qanday ifoda etilishi o‘rganiladi. Bu metod yordamida Gandhi prinsiplariga zid bo‘lgan texnosentrik va utilitaristik yondashuvlar tanqid qilinadi, hamda muqobil gumanistik-paradigmalar ishlab chiqiladi¹⁰.

Ushbu kompleks metodologik yondashuvlar orqali tadqiqotda quyidagi asosiy maqsadlar ko‘zda tutilgan:

Mahatma Gandining axloqiy-falsafiy qarashlarini zamonaviy sun’iy intellekt tizimlarida dolzarb interpretatsiya qilish;

Tafakkur erkinligi, axloqiy tuzilma va ma’naviy qadriyatlar sun’iy intellekt transformatsiyasida qanday shakllanishini aniqlash;

Sun’iy intellektni insonparvarlik asosida boshqarish konsepsiyasiga nazariy zamin yaratish.

Bashorat sifatida ta’kidlash mumkin: agar sun’iy intellekt etikasi gumanistik asosda shakllantirilmasa, texnologiyalar insoniy tafakkurni emas, balki utilitar natijalarni ustuvor qiluvchi tizimlarga aylanishi mumkin. Bu esa tafakkur erkinligi va ma’naviy qadriyatlar yo‘qolish xavfini kuchaytiradi.

Natijalar

Ushbu tadqiqot Mahatma Gandining ta’lim konsepsiysi – “Nai Talim” – va zamonaviy sun’iy intellekt asosidagi ta’lim tizimlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni tahlil qilishga qaratilgan. Gandining “Nai Talim” modeli insonning jismoniy, aqliy va ma’naviy rivojlanishini bir butun sifatida ko‘radi, bunda amaliy mehnat, axloqiy tarbiya va mustaqil tafakkur markaziy o‘rin tutadi¹¹.

Gandining “Satya” va “Ahimsa” prinsiplari sun’iy intellekt etikasi uchun nazariy poydevor bo‘la oladi. Bu tamoyillar sun’iy intellekt tizimlarining etik muvozanatini saqlashda, inson manfaatini ustuvor qilishda muhim ahamiyatga ega. Gandining prinsiplari asosida sun’iy intellekt algoritmlariga etik cheklovlar joriy etishning samaradorligini ko‘rsatadi.

Zamonaviy sun’iy intellekt texnologiyalari ta’lim jarayonini avtomatlashtirish, shaxsiylashtirish va optimallashtirish imkonini bersa-da, bu jarayonlar insoniy qadriyatlar, axloqiy tanlov va shaxsiy tafakkurga tahdid solishi

⁹ Braidotti, R. The Posthuman. Polity Press, 2013.

¹⁰ Fairclough, N. Critical Discourse Analysis: The Critical Study of Language. Routledge, 2010.

¹¹ Choudhury, S. (2023). Ethical AI through Gandhi’s Philosophy: Satya and Ahimsa in Digital Age. Journal of Philosophy and Technology, 36(2), 211–232.

mumkin. Sun’iy intellekt asosidagi ta’lim tizimlarining algoritmik qarorlar qabul qilishi, ma’lumotlarga asoslangan baholash va o‘quvchilarning shaxsiy ma’lumotlarini qayta ishlashi axloqiy va huquqiy muammolarni yuzaga keltiradi¹². Gandining ma’naviy-axloqiy merosi sun’iy intellekt tizimlarining gumanistik yo‘nalishda rivojlanishiga xizmat qilishi mumkin.

Tafakkur erkinligi,adolat, zo‘ravonlikdan voz kechish kabi qadriyatlar algoritmik qarorlar qabul qilishda markaziy o‘ringa ega bo‘lishi lozim. Allen Gandining zamonaviy ijtimoiy muammolarga javob bera olish salohiyatini ochib beradi, ayniqsa texnotsentrizm va utilitarizmdan voz kechish zarurligini ko‘rsatadi.

Gandining ta’limga oid qarashlari, xususan, “o‘rganish orqali o‘rganish” tamoyili, bugungi kunda ham dolzarb bo‘lib, u o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini, axloqiy yetukligini va ijtimoiy mas’uliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Gandining ta’lim modeli jamiyatdagi tengsizliklarni bartaraf etish, ijtimoiy inklyuziyani ta’minalash va insonparvarlik tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qiladi¹³.

“Nai Talim” (assosiy ta’lim) konsepsiysi axloqiy sun’iy intellekt ta’limiy algoritmlarini shakllantirishda muhim metodologik vosita bo‘lishi mumkin.

Bu yondashuv sun’iy intellekt orqali amalga oshirilayotgan raqamli ta’limda qadriyatli, ijtimoiy faol va axloqiy ongli shaxs tarbiyasini ta’minlaydi. Gandhi ta’lim konsepsiyasining sun’iy intellekt tizimlariga mos adaptatsiyasi zamonaviy raqamli pedagogika doirasida keng tahlil qilinmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi sifatida, Gandining asarlari, zamonaviy sun’iy intellekt asosidagi ta’lim tizimlari bo‘yicha ilmiy maqolalar va falsafiy-axloqiy tahlillar o‘rganildi. Bu yondashuv orqali, Gandining ta’lim konsepsiyasining zamonaviy raqamli ta’lim muhitida insonparvarlik va shaxsiy tafakkur erkinligini rivojlantirishdagi dolzarb roli asoslab berildi. Ziddiyatli yondashuvlar ham mavjud: Gandhi prinsiplari texnologik innovatsiyalar tezligiga tormoz bo‘lishi mumkin degan fikrlar bor¹⁴.

Bostromning asarida insonparvarlik prinsiplariga asoslangan sun’iy intellekt yondashuvlar samaradorligini tanqidiy baholovchi fikrlar mavjud bo‘lib, bu muammoga ko‘p qirrali yondashish zarurligini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, Gandining ta’limga oid qarashlari va sun’iy intellekt asosidagi zamonaviy ta’lim tizimlari o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minalash orqali, insonparvarlik va mustaqil tafakkur muammolarini hal etish mumkin. Bu esa,

¹² Allen, D. (2011). Gandhi after 9/11: Creative Nonviolence and Sustainability. In Gandhi and Philosophy: On Theological and Ethical Discourses, SUNY Press.

¹³ Gandhi, M. K. (1953). Basic Education. Navajivan Trust.

¹⁴ Bostrom, N. (2014). Superintelligence: Paths, Dangers, Strategies. Oxford University Press.

kelajakda axloqiy, ijtimoiy va texnologik jihatdan barqaror ta’lim tizimini yaratishga xizmat qiladi.

Muhokama Mahatma Gandining axloqiy-falsafiy konsepsiyalari zamonaviy sun’iy intellekt etikasi uchun nazariy-axloqiy asos bo‘lishi mumkin. Ushbu tamoyillar, ayniqsa algoritmikadolat, ma’lumotlarni shaffof tahlil qilish va qaror qabul qilishda inson manfaatini ustuvor qo‘yishda dolzarb hisoblanadi. Shuningdek, Gandining ta’lim konsepsiysi – “Nai Talim” — insonning jismoniy, aqliy va ma’naviy rivojlanishini bir butun sifatida ko‘radi, bunda amaliy mehnat, axloqiy tarbiya va mustaqil tafakkur markaziy o‘rin tutadi.

Gandi ta’limni faqat bilim berish vositasi emas, balki insonni komil, ijtimoiy foydali va axloqan barkamol shaxs sifatida shakllantirish vositasi deb bilgan. Uning ta’limga oid qarashlari, xususan, “o‘rganish orqali o‘rganish” tamoyili, bugungi kunda ham dolzarb bo‘lib, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini, axloqiy yetukligini va ijtimoiy mas’uliyatini rivojlantirishga qaratilgan¹⁵.

Muallif Gandhi tamoyillarini sun’iy intellekt dizaynida etik me’zon sifatida qo‘llashni taklif qiladi. Uning fikricha, haqiqatni izlash algoritmlarni manipulyatsiyadan saqlaydi, zo‘ravonlikdan voz kechish esa foydalanuvchi xavfsizligini ta’minlaydi.

Gandining “Nai Talim” – ya’ni ta’lim orqali axloqiy ongni rivojlantirish konsepsiysi – sun’iy intellekt asosidagi ta’lim texnologiyalarining ma’naviy tarkibini boyitishga xizmat qiladi. Bu yondashuv texnologiyaga insonga xizmat qiluvchi vosita sifatida qarashni mustahkamlaydi.

Zamonaviy sun’iy intellekt texnologiyalari ta’lim jarayonini avtomatlashtirish, shaxsiylashtirish va optimallashtirish imkonini bersa-da, bu jarayonlar insoniy qadriyatlar, axloqiy tanlov va shaxsiy tafakkurga tahdid solishi mumkin. Sun’iy intellekt asosidagi ta’lim tizimlarining algoritmik qarorlar qabul qilishi, ma’lumotlarga asoslangan baholash va o‘quvchilarning shaxsiy ma’lumotlarini qayta ishlashi axloqiy va huquqiy muammolarni yuzaga keltiradi¹⁶.

Gandi zamonaviy texnologiyalarning maqsad emas, balki axloqiy kamolotga erishish vositasi sifatidagi rolini uqtiradi. Sun’iy intellekt tizimlarida bu konsepsiyanı qo‘llash o‘quvchilarda faqat bilim emas, balki axloqiy qadriyatlarini shakllantirish imkonini beradi.

Gandining qarashlarini sun’iy intellekt bilan bog‘lash yo‘lida zamonaviy tadqiqotchilar, masalan, S. Mylavrapu tomonidan taklif qilingan “SatyagrahAI”

¹⁵ Choudhury, S. (2023). Ethical AI through Gandhi’s Philosophy: Satya and Ahimsa in Digital Age. Journal of Philosophy and Technology, 36(2), 211–232.

¹⁶ Gandhi, M. K. (1953). Basic Education. Navajivan Trust.

modeli alohida e’tiborga loyiq. U sun’iy intellekt etikasi Gandicha tamoyillar asosida rivojlanishi mumkinligini amalda isbotlaydi.

Gandining ta’limga oid qarashlari, xususan, “o‘rganish orqali o‘rganish” tamoyili, bugungi kunda ham dolzarb bo‘lib, u o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini, axloqiy yetukligini va ijtimoiy mas’uliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Gandining ta’lim modeli jamiyatdagi tengsizliklarni bartaraf etish, ijtimoiy inklyuziyani ta’minalash va insonparvarlik tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Muallif Satyagrahani etik sun’iy intellekt modeliga moslab ishlab chiqilgan loyihalar misolida haqiqatni ustuvorlikka aylantirish sun’iy intellekt rivojida yangi bosqich boshlab bergenini ta’kidlaydi.

Biroq, ba’zi tadqiqotchilar Gandining prinsiplari sun’iy intellektning tezkor evolyutsiyasiga to‘sinqilik qilishi mumkinligini ta’kidlashadi. Xususan, Nick Bostrom o‘z asarida Gandhi etikasi sun’iy intellektni haddan tashqari ehtiyyotkor va inertsion tizimga aylantirishi mumkinligini ta’kidlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi sifatida, Gandining asarlari, zamonaviy sun’iy intellekt asosidagi ta’lim tizimlari bo‘yicha ilmiy maqolalar va falsafiy-axloqiy tahlillar o‘rganildi. Bu yondashuv orqali, Gandining ta’lim konsepsiyasining zamonaviy raqamli ta’lim muhitida insonparvarlik va shaxsiy tafakkur erkinligini rivojlantirishdagi dolzarb roli asoslab berildi¹⁷.

Muallif etik printsiplar sun’iy intellekt qarorlarini sekinlashtiradi deb hisoblaydi. Bu fikr texnologik taraqqiyot bilan axloqiy nazorat o‘rtasidagi murakkab muvozanat muammosini ko‘rsatadi.

Boshqa bir qator falsafiy manbalarda, masalan, Luciano Floridining konseptual dizayn falsafasi orqali axloqiy tizimlar yaratish zarurligi ta’kidlanadi. Gandining yondashuvi bu borada kuchli tarixiy-axloqiy manba bo‘la oladi¹⁸.

Floridi Gandining fikrlarini zamonaviy axborot falsafasi doirasida qayta talqin qilib, etik tizimlar yaratishda konseptual dizayn yondashuvini qo‘llashni taklif qiladi. Bu sun’iy intellektni insoniy qadriyatlarga integratsiyalashda foydalidir.

Shu asosda aytish mumkinki, Gandhi tamoyillari sun’iy intellekt rivojida nafaqat etik yo‘nalishni belgilab beradi, balki tafakkur erkinligini saqlagan holda insoniyat kelajagini axloqiy asosda boshqarishga chorlaydi. Biroq, bu qarashlarning zamonaviy texnologik tezlik, algoritmik murakkablik va global raqobatga moslashishi doimo ixtilofli bahslar doirasida bo‘lib qoladi.

¹⁷ Bostrom, N. (2014). Superintelligence: Paths, Dangers, Strategies. Oxford University Press.

¹⁸ Floridi, L. (2019). The Logic of Information: A Theory of Philosophy as Conceptual Design. Oxford University Press.

Xulosa qilib aytganda, Gandining ta’limga oid qarashlari va sun’iy intellekt asosidagi zamonaviy ta’lim tizimlari o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minalash orqali, insonparvarlik va mustaqil tafakkur muammolarini hal etish mumkin. Bu esa, kelajakda axloqiy, ijtimoiy va texnologik jihatdan barqaror ta’lim tizimini yaratishga xizmat qiladi.

Mahatma Gandining axloqiy-falsafiy qarashlari zamonaviy intellektual texnologiyalar, xususan sun’iy intellekt, raqamli ta’lim va axborot tizimlari bilan o‘zaro murakkab uyg‘unlikda talqin qilinmoqda. U ilgari surgan prinsiplari, inson tafakkurining erkinligi, aql bilan yurak uyg‘unligida faoliyat yuritish tamoyillari bilan sun’iy intellekt etikasi uchun zarur bo‘lgan nazariy zamanni shakllantiradi. Gandining fikricha, texnologiya inson kamolotiga xizmat qilishi lozim, aks holda u ongni qamrab oluvchi vositaga aylanishi xavfi mavjud¹⁹.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Gandining “Nai Talim” konsepsiyasi – ya’ni axloqiy asoslangan ta’lim tamoyillari – raqamli transformatsiyada insonparvarlik me’zonlarini tiklash va kuchaytirish imkonini beradi. Bu, ayniqsa, algoritmik tarafkashlikni kamaytirish va sun’iy intellekt qarorlarini insoniy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi²⁰.

Biroq, bu tamoyillarning real texnologik rivojlanishdagi amaliy tatbiqi murakkabligicha qolmoqda. Chunki bugungi sun’iy intellekt texnologiyalari iqtisodiy manfaat, tezkor natija va algoritmik samaradorlikka yo‘naltirilgan bo‘lib, bu axloqiy-ijtimoiy muvozanatni buzishi mumkin²¹. Shu sababli, Gandi qarashlaridan kelib chiqib sun’iy intellektta tafakkur erkinligi, mas’uliyatli texnologik taraqqiyot, va etik dizayn yondashuvlarini nazariy va amaliy jihatdan chuqur tahlil qilish zarur²².

Zamonaviy falsafa, axloqshunoslik va texnologiya integratsiyasida Gandi merosi nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki kelajakning barqaror,adolatli va ma’naviy yuksak ijtimoiy muhitini shakllantirishda metodologik manba bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois, Gandi qarashlari va intellektual texnologiyalar o‘rtasida chuqur ilmiy-falsafiy sintetik munosabatlar shakllanishi — XXI asr axborot sivilizatsiyasida ijtimoiy barqarorlikka erishish yo‘lida dolzarb vazifadir.

XULOSA Ushbu maqolada Mahatma Gandining axloqiy-falsafiy qarashlari — xususan Satya (haqiqat) va Ahimsa (zo‘ravonliksizlik) tamoyillarining zamonaviy intellektual texnologiyalar, ayniqsa sun’iy intellekt taraqqiyoti

¹⁹ Choudhury, S. (2023). Ethical AI through Gandhi’s Philosophy: Satya and Ahimsa in Digital Age. *Journal of Philosophy and Technology*, 36(2), 211–232.

²⁰ Gandhi, M. K. (1953). *Basic Education*. Ahmedabad: Navajivan Publishing House.

²¹ Bostrom, N. (2014). *Superintelligence: Paths, Dangers, Strategies*. Oxford University Press.

²² Floridi, L. (2019). *The Logic of Information: A Theory of Philosophy as Conceptual Design*. Oxford University Press.

kontekstida qanday ahamiyatga ega ekani falsafiy, axloqiy va texnologik asosda tahlil qilindi. Tadqiqot davomida Gandining insonparvarlikka asoslangan yondashuvi, tafakkur erkinligini ta'minlashga qaratilgan qarashlari va ma'naviyatni asosiy me'yor sifatida ilgari surgan konsepsiyalari bugungi raqamli transformatsiya jarayonlari uchun dolzARB metodologik va axloqiy manba bo'lishi isbotlandi.

Asosiy xulosa shuki, Gandhi g'oyalari faqat tarixiy-falsafiy meros emas, balki kelajak texnologiyalarining etik va ijtimoiy yo'nalishini belgilashda fundamental rol o'ynaydi. Shuningdek, bu qarashlar algoritmik tarafkashlik, inson qadriyati, tafakkur erkinligi va axborot adolati kabi masalalarni hal etishda kuchli konseptual vositadir. Shu bois, intellektual texnologiyalarni insonparvarlik tamoyillari asosida shakllantirish uchun Gandining falsafasi chuqur o'rganilishi va amaliyotda qo'llanilishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Gandhi, M.K. *The Story of My Experiments with Truth*. Navajivan Publishing House, 1927.
2. Floridi, L. *The Ethics of Information*. Oxford University Press, 2013.
3. Bostrom, N. *Superintelligence: Paths, Dangers, Strategies*. Oxford University Press, 2014.
4. Russell, S., Norvig, P. *Artificial Intelligence: A Modern Approach*. Pearson, 2021.
5. Oxford Internet Institute. *AI and Human Autonomy: 2023 Annual Report*. University of Oxford, 2023.
6. Husserl, E. *Ideas Pertaining to a Pure Phenomenology*. Nijhoff, 1931.
7. Scheler, M. *Formalism in Ethics and Non-Formal Ethics of Values*. Northwestern University Press, 1973.
8. Gadamer, H.-G. *Truth and Method*. Continuum, 1989.
9. Braidotti, R. *The Posthuman*. Polity Press, 2013.
10. Fairclough, N. *Critical Discourse Analysis: The Critical Study of Language*. Routledge, 2010.
11. Choudhury, S. (2023). Ethical AI through Gandhi's Philosophy: *Journal of Philosophy and Technology*, 36(2), 211–232.
12. Allen, D. (2011). Gandhi after 9/11: Creative Nonviolence and Sustainability. In *Gandhi and Philosophy: On Theological and Ethical Discourses*, SUNY Press.
13. Gandhi, M. K. (1953). *Basic Education*. Navajivan Trust.
14. Bostrom, N. (2014). *Superintelligence: Paths, Dangers, Strategies*. Oxford University Press.

15. Mylavarapu, S. (2023). Contrasting Approaches to Ethical AI Development. ResearchGate.
16. Floridi, L. (2019). The Logic of Information: A Theory of Philosophy as Conceptual Design. Oxford University Press.